



THE ARTISTIC CHARACTERISTICS OF CHARACTER DEPICTION IN AFGHAN WRITER ASADULLO HABIB'S STORIES “سه مزدور” AND “دهقانان”

Khushnoza Ravshanova

4th-year undergraduate student

Higher School of Iranian Studies and Afghan Studies

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

N. Kabirova

Tashkent State University of Oriental Studies

Associate Professor of the Higher School of Iranian Studies and Afghan Studies, PhD

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Character depiction, portrait, comparative description, artistic detail, psychologism, composition, system of images, aesthetic function, realism.

Received: 25.03.26

Accepted: 26.03.26

Published: 27.03.26

Abstract: This article analyzes the distinctive features of character depiction in Asadullo Habib's story “سه مزدور”. The study highlights how the characters' physical appearance, psychological state, and social status are revealed through various artistic devices, particularly comparative description and portrait elements. The research examines, on a scientific basis, the compositional and aesthetic functions of expressive means in shaping a character. As a result of the article, the author's mastery of character creation and artistic style are identified.

AFG‘ON YOZUVCHISI ASADULLO HABIBNING “سه مزدور” VA “دهقانان” HIKOYALARIDA QAHRAMONLAR TASVIRINING BADIY XUSUSIYATLARI

Xushnoza Ravshanova

4-kurs bakalavr bosqichi talabasi

“Eronshunoslik va afg‘onshunoslik” oliy maktabi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

N. Kabirova

TDSHU, “Eronshunoslik va afg‘onshunoslik” oliy maktabi dotsenti, PhD

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Qahramon tasviri, portret, qiyosiy tasvir, badiiy detal, psixologizm, kompozitsiya, obraz tizimi, estetik funksiya, realizm.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Asadullo Habibning “سه مزدور” hikoyasida qahramonlar tasvirining oʻziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Asarlarda personajlarning tashqi koʻrinishi, ruhiy holati va ijtimoiy mavqei turli badiiy vositalar, xususan qiyosiy tasvir hamda portret elementlari orqali ochib berilishi yoritiladi. Tadqiqotda qahramon xarakterini yaratishda tasviriy vositalarning kompozitsion va estetik vazifasi ilmiy asosda koʻrib chiqiladi. Maqola natijasida muallifning obraz yaratish mahorati va badiiy uslubi aniqlanadi.

ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ОСОБЕННОСТИ ИЗОБРАЖЕНИЯ ГЕРОЕВ В РАССКАЗАХ АФГАНСКОГО ПИСАТЕЛЯ АСАДУЛЛО ХАБИБА «سه مزدور» И «دهقانان»

Хушнoза Равшанoва

Студентка 4 курса бакалавриата

Высшая школа иранистики и афганистики

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

Н. Кабирова

Ташкентский государственный университет востоковедения, доцент

Высшей школы иранистики и афганистики, PhD

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: изображение героя, портрет, сравнительное описание, художественная деталь, психологизм, композиция, система образов, эстетическая функция, реализм.

Аннотация: В данной статье анализируются своеобразные особенности изображения героев в рассказе Асадулло Хабиба «سه مزدور». Освещается, как внешность персонажей, их психологическое состояние и социальное положение раскрываются с помощью различных художественных средств, в частности сравнительного описания и портретных элементов. В исследовании на научной основе рассматриваются композиционные и эстетические функции изобразительных средств в создании характера героя. В результате статьи определяется мастерство автора в создании образов и его художественный стиль.

Kirish. Ikkinchi jahon urushi yillarida dunyoga kelgan, uning ayanchli sinovlarini boshdan kechirgan hamda oʻzining serqirra ijodi bilan afgʻon adabiyoti tarixida oʻchmas iz qoldirgan yozuvchi Asadullo Habib koʻplab hikoyalar qatori “سه مزدور” hikoyasida ham oʻsha davrning ijtimoiy muhitidagi tushkunlik va umidsizlikni ramziy ifodalar bilan goʻzal tarzda yoritib bergan. Hikoyadagi

har bir obraz ramziy ma'noga ega. Hatto hikoyaning o'zi "سه مزدور" ("Uch xizmatkor") deb nomlanadi.

Hikoya boshidanoq ijodkor qahramon qalbidagi kechinmalar shu qadar og'riqli ekanligini kitobxonga atiga birgina jumla orqali yetkazmoqda. Bu esa Asadullo Habibning naqadar kuchli hikoyanavis ekanligidan dalolat beradi. Shuningdek, quyoshning yuzi daxshatli ko'rinishi va nurlarining nafratli ko'rinishi esa metanimiya hisoblanib, barchaga, odamlar-u hayvonot olami, hatto butun o'simlik olamiga foydali bo'lgan quyosh hamda uning nurlari inson qalbidagi o'kinch va g'am-anduh tufayli daxshatli va keraksizdek tuyulishi yuksak mahorat bilan ifodalangan. Chindan ham adibning hech bir hikoyasida baxtdan ko'zlari kulgan, qalbi quvonchga to'lgan, o'tmishi-yu kelajagida musibatsiz hayot kechirgan badiiy obrazlar ya'ni asar qahramonlarini uchratmaymiz.

Asadullo Habibning prozaik ijodini g'oyaviy mazmun e'tibori bilan ikki davrga bo'lish mumkin. Uning birinchi davrini 1978 yil apreldagi davlat tuzumi o'zgarishidan oldin yozilgan asarlar tashkil etadi. Bular 1965 yilda nashr etilgan "Oqbadan" (سپید اندام) qisqasi (qissa rus va o'zbek tillariga "Oydin" (آیدین) nomi bilan tarjima qilingan) va 1967 yilda bosilib chiqqan "Uch xizmatkor" (سه مزدور) hikoyalar to'plamidir. Bu to'plam o'n ta hikoyani qamrab oladi. Muallifning 1978 yildan oldin matbuotda e'lon qilingan hikoyalarini ham ana shu guruhga kiritish lozim bo'ladi.

Yozuvchining "Uch xizmatkor" asarining asosiy qahramonlari Shomur, Jahontob va Tursun degan xizmatkorlar bo'lib, ular bir arbob (boy)ning qo'lida quldek xizmat qilishar, evaziga esa arbobdan sariq sachaqa ham olishmas edi. Hikoya syujetidan kelib chiqqan holda asosiy personajlar tahlili quyidagicha bo'ladi:

Shomur – sodda, singlisidan boshqa hech kimi yo'q, mehnatkash qishloq yigiti bo'lib, otasining qarzini to'lash maqsadida boyning xizmatida bo'ladi. U juda ilojsiz ahvolda qoladi.

– بلی من و خواهرم در آن خانه خدمت میکنیم. پدرم خدا بیامرز، در سال قطعی بیست سیر گندم از نزد همین
الله نظر ارباب گرفته بود. و آمیخته با آه عمیقی در حالیکه نگاهش میان پيله چای غرق شده بود

ادامه داد . . . : آن خدا بیامرز هم سر خود را گرفت و رفت و من جهانتاب رابی پشت و پناه گذاشت

–Ha. Singlim ikkovimiz turamiz. Biz bir xonadonning xizmatini qilamiz. Rahmatlik otam – Xudo joyini jannatdan qilsin – qahatchilik yillari Ollonazar arbobdan o'n pud bug'doy olgan edi. – Shomur piyoladagi choyga qarab chuqur "uh" tortib, gapida davom etdi: –Uh... U rahmatlik ham boshini olib ketdi qoldi, men bilan Jahontobni panohsiz qoldirib ketdi

Bundan tashqari hikoyada, Asadullo Habib o'z hikoyalarida badiiy tasvir vositalaridan mohirlik bilan foydalanadi; u obrazlarga jon baxsh etib, bo'ri, o'rdak va tabiat hodisalariga qiyoslab tasvirlaydi:

بوری که راستی هم مانند گورگ جوانی دلیر و پرشتاب بود از فنون عسکری استفاده کرد

Chindan ham bo'ridek jasur va chaqqon Bo'ri darhol yerga yuz tuban

yotib, tirsagiga tayanib emaklaganicha qumtepalar ortidan ko'zdan yo'qoldi.

Yozuvchi hikoyadagi obrazning epchil harakatlari va dadil yurishi o'quvchining ko'z oldiga bo'rining chaqqonligi va jasoratini keltirar edi.

خودش که مانند مرغابی از کمر پایش را جنبانده می دوید با گوشه سر انداز ابریشمین سیاهش زمین را جاروب می کرد و در حالیکه چند تار موی میان انگشتانش جر شده بود خود را به ارباب رساند.

Shundan keyin u o'rdakdek lapanglaganicha pildirab, boshidagi qora shoyi yoping'ichini yerga sudralganicha arbobning oldiga bordi.

Bu gapda badiiy tasvir vositalaridan asosan o'xshatish (tasbeh) va tafsil (detallash) vositalari mohirona qo'llangan.

خودش که مانند مرغابی از کمر پایش را جنبانده می دوید

– iborasi orqali ayolning yurishidagi noqulaylik, og'irlik va go'yoki sal bo'lsa ham kulgililik o'rdakka qiyoslangan. Bu o'xshatish ayol obrazini jonliroq, ko'z oldida gavdalanuvchi qilib beradi.

بن گوشه سر انداز ابریشمین سیاهش زمین را جاروب می کرد

– degan ifodalar yurishdagi mayda detallarni tasvirlab, qahramonning holatini, kayfiyatini va tashqi ko'rinishini tasavvur qilishga imkon yaratadi. Bu detal orqali ham personajning beozorligi yoki ehtimol, achinarli holati ifodalangan.

Umuman olganda, bu jumlada muallif harakat va tashqi ko'rinishni o'rdakka o'xshatish orqali personajga nisbatan yumshoq istehzo bilan qaraydi, shu orqali unga o'ziga xos ruhiy holat va ijtimoiy mavqe ham yuklaydi.

اکرم مانند این قله بلند، محکم و زیبا است و مانند آفتاب، پرلطف و گرم به هر مرزعه می تابد و نیروی خود را می فرساید.

Shunda beixtiyorvazmin tog' cho'qqisidek yuksak, qaddi-qomati kelishgan, yeru zaminga huzurbaxsh nurlarini sochuvchi saxiy quyoshdek tanti yigit ekanligiga o'zingiz ham murod hosil qilasiz.

Shu bilan bir qatorda, Asadullo Habib tuyg'ularni uyg'otuvchi tasvir ya'ni emotiv tasvir uslubini ham juda mohirona qo'llagan.

این ترکمن تنومند که برپریشته ریگ تکیه کرده بود، پوست سرخ آفتاب سوخته داشت، کلا پوست گو سفیدی اش را برزانونی چپش پوشانده بود. کله ترا شیده اش و گرد مینمود.

به زیر آن ابروان خرمایی، چشمان سبز و شفافش مانند دومهره، شیشه یی میدرخشید.

Qum ostida yonboshlab yotgan bu barvasta turkmanning terisi oftobu shamolda pishib qip-qizil bo'lib ketgandi. Qorako'l telpagini chap tizzasiga qo'ndirgandi. Tozalab qirilgan boshi oppoq va dum-dumaloq bo'lib ko'rinardi. Quyuyq, sariq qoshlari ostidagi ko'k va shaffof ko'zlari ikki shisha munchoqdek yiltirab ko'rinardi. Peshonasi va yoqasi ochiq ko'k bo'z ko'ylagidan ko'rinayotgan bo'ynini qat-qat ajin bosgandi.

Bu parcha juda ta'sirli tasvirlangan — barvasta turkman obrazining tashqi qiyofasi orqali yozuvchi uning hayoti, tajribasi, va ichki dunyosi haqida ham bilvosita ma'lumot beradi. Bunga misol tariqasida quyidagi asosiy tasviriy vositalarga e'tibor qaratish mumkin:

پوست سرخ آفتاب سوخته داشت، كلا پوست گو سفیدی اش را برزانی چیپش پوشانده بود

Terisi oftobu shamolda pishib qip-qizil bo'lib ketgandi.

Bu ranglar obrazni jonli va tasavvurga yaqin qiladi.

Asadullo Habibning hikoyalarida obrazlar tasviri o'ta badiiy va hayotiy bo'lib, u har bir qahramonni faqat voqealar silsilasida emas, balki ularning tashqi ko'rinishi, harakatlari, ichki kechinmalari va atrof-muhit bilan bog'liqligi orqali chuqurroq ochib beradi. Muallif qahramonlarni tasvirlashda an'anaviy ta'riflar bilan cheklanmaydi, balki ularni o'ziga xos badiiy timsollar — hayvonlar, tabiat manzaralari yoki yorqin metaforalar orqali jonlantiradi.

Masalan, epchil va chaqqon qahramonni bo'riga, sokin va begunoh qahramonni o'rdakka, saxiy va yuksak fazilatli obrazni esa quyoshga qiyoslaydi. Bu o'xshatishlar oddiy tasvir emas, balki har bir qahramonning ichki olami, hayotga munosabati va jamiyatdagi o'rnini ifodalovchi badiiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Muallifning tasvir uslubida jonli tafsilotlar — harakatlar, kiyim-kechaklar, yurish-turish, hatto yuz ifodalari orqali obrazlar yanada tabiiy va hayotga yaqin ko'rinadi. U yozayotgan har bir obrazda o'quvchi o'z hayotidagi tanish insonni yoki ko'rgan holatni eslashi, uni his etishi mumkin. Ayniqsa, yozuvchining tabiat bilan uyg'un obrazlar yaratish mahorati alohida e'tiborga loyiq. Tog', quyosh, yeru zamin kabi manzaralar orqali u inson ruhiyatidagi ichki sokinlik, kuch, saxovat kabi tushunchalarni badiiy ifoda bilan bog'laydi.

Shu tarzda Asadullo Habib hikoyalaridagi obrazlar nafaqat voqeani harakatlantiruvchi timsollar, balki asarning badiiy-estetik qimmatini belgilovchi asosiy unsurlar sifatida namoyon bo'ladi. Ularning tasviridagi poetiklik, ichki uyg'unlik va mazmuniy teranlik Asadullo Habib ijodiga xos betakror uslubni shakllantiradi. Bu esa uning hikoyalarini o'qir ekanmiz, nafaqat bir voqeani emas, balki bir olamni, bir insonning ichki olamini his etishimizga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. R.Inomxo'jayev, Afg'oniston dariyzabon adabiyoti, (XIX asr oxiri – XX asr). T.: TDSHI, 2018. – B. 73.
2. Гирс Г.Ф. Современная художественная проза па пушту в Афганистане. Москва, 1958. С 30, 45.
3. (۱۹۶۵/۱۳۴۴، کابل، داستانمیانہ، سيداندام، اسدالله، حبيب، A.Хабиб. Оқбадан)
4. ۱۹۶۷، کابل، داستانهایکوتاه، سهمز دور، سيداندام، اسدالله، حبيب،

5. Кабирова, Наргиза. "ЗАМОНАВИЙ ДАРИЙ ҲИКОЯЧИЛИГИНИНГ ТАРАҚҚИЁТИ ТАРИХИ." XXI Asr: Fan va ta'lim masalalari (XXI век: Вопросы науки и образования) 1 (2025): 493-504.
6. Киселева Л.И. Асадулла Хабиб.– Хабиб, Асадулла. Айдын. Повесть и рассказы. Москва,1974. С.8
7. Rahmon Inomxo'jayev. Afg'oniston dariyzabon adabiyoti (XIX asr – XX asr). Toshkent – 2018 y.,136-139-betlar.
8. اسد الله حبيب، نام کتاب "آیدین" قصه "سه مزدور" سال 1366